

BOSHLANG'ICH TA'LIM – SHAXS SHAKLLANISHI DAVRINING ENG MUHIM BOSQICHI

*Sirdaryo viloyati Xovos tumani
10-umumiy o'rta ta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi
Xasanova Shaxnozaxon Mimirjonovna*

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada boshlang'ich ta'lim – shaxs shakllanishi davrining eng muhim bosqichi ekanligi, bu davr bola ong ostida olamni anglash, tasavvur va bilimlar poydevorini tiklash pallasi bo'lgani uchun ham nozik e'tibor talab etishi haqida so'z boradi.

Ushbu maqolani yozishdan maqsad: boshlang'ich ta'linda zamonaviy pedagogika oldidagi doimiy va murakkab masala sifatida darsliklarning g'oyaviy, tarbiyaviy va ma'rifiy saviyasiga jiddiy yondashishni talab etishi, innovatsion usullarnining ahamiyatini ko'rsatib berish.

Didaktik o'yin va usullar: "Shovqinni cheklash", "O'rgimchak to'ri", "Ijodiy mashq", "Uchburchak", "Imkoniyat"...

Natija: Boshlang'ich ta'linda o'quvchilarning tanqidiy fikrlashi, raqamlı texnologiyalardan foydalanishni shakllantirish.

Kalit so'zlar: interfaol, samara, tanqidiy fikrlashi, raqamlı texnologiyalar, usullar, nutq, so'z boyligi, matn, ijodkorlik...

Boshlang'ich ta'lim – shaxs shakllanishi davrining eng muhim bosqichi. Bu davr bola ong ostida olamni anglash, tasavvur va bilimlar poydevorini tiklash pallasi bo'lgani uchun ham nozik e'tibor talab etadi. Ayni shu pallada bola o'zida «o'quvchi shaxsi»ni yaratadi, maktabga va ta'lim olishga nisbatan qiziqishni, mehrni tuyadi, ilm yo'lidagi kelgusi natijalar uchun kuch to'plashni boshlaydi. Bu esa, zamonaviy pedagogika oldidagi doimiy va murakkab masala sifatida darsliklarning g'oyaviy, tarbiyaviy va ma'rifiy saviyasiga jiddiy yondashishni talab etadi. Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida o'qitish metodikasini takomillashtirish vazifasi belgilangan. Shunga muvofiq, darsliklarni yangilash bo'yicha muayyan ishlar bajarildi. Biz avvallari bolalarning yozuviga ko'proq e'tibor qaratganmiz, diktantlar yozdirganmiz. Yangi tajriba bilan esa o'quvchilarning tanqidiy fikrlashi, raqamlı texnologiyalardan foydalanishni, o'z fikrini erkin bayon eta olishiga ko'proq ahamiyat beriladi. Zero, raqamlı texnologiyalarning hayotimizga shiddat bilan kirib kelishi insoniyatning yashash tarzi, sharoitini butunlay yangicha darajada o'zgartirib yubormoqda. Ulardan ham kundalik ishlarida ham ishlab chiqarishda foydalanish insoniyatni to'rtinchi sanoat inqilobiga olib keldi. Raqamli inqilobga asoslangan bu sanoat inqilobi aqlii tizimlar tomonidan boshqariluvchi avtomatlashtirilgan ishlab chiqarishga butunlay o'tish deganidir. Bunday sanoat inqilobi sharoitida endi nafaqat raqamlı texnologiyalardan foydalanuvchi balki ularni ishlab chiqaruvchi yuqori malakali mutaxassislarini yetishtirish masalasi butun dunyo oldidagi muammolardan biridir. Albatta bunday jarayon bilan to'qnash kelgan har qanday jamiyat uchun raqamlı dunyonи boshqara oladigan, raqamlı iqtisodiyotni rivojlantira oladigan kelajak mutaxassislarini tayyorlash ustuvor masalalardan biridir. Yurtimizda ham raqamlı bilimlarga, tafakkurga ega, strategik fikrlay oladigan, zamonaviy bilim va tajribalar, milliy va umumbashariy qadriyatlar asosida mustaqil va

mantiqiy fikrlaydigan yoshlarni tarbiyalash ustuvor yo'nalishlardan biridir. Bu masala ta'lim-tarbiya sohasiga katta mas'uliyat yuklaydi. Quyida shunday boshlang'ich ta'lim – shaxs shakllanishida xizmat qiladigan usullarni keltirmoqchiman:

"O'rgimchak to'ri" metodi. Bu usulda o'qituvchi ipning bir uchini ushlab kim? so'rog'iga javob bo'ladigan so'zlarni aytishni sinfdagi xohlagan bitta o'quvchiga beradi. U o'quvchi ham kim? so'rog'iga javob bo'ladigan so'z aytib, keying o'quvchiga beradi. O'yin ip tugaguncha davom etadi. Ip tugagandan so'ng o'quvchilar nima? so'rog'iga javob bo'ladigan so'z aytib ipni orqaga qaytaradi. Bu o'yinda o'quvchilar bir- birining so'zini qaytarmasligi kerak.

"Shovqinni cheklash" metodi. Ushbu metod boshlang'ich ta'limda darslarni yaxshi tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yangi va tajribasiz yosh o'qituvchilarning sinfni nazoratga ola bilmasliklarining asl sabablarini o'rganasiz;

Dars jarayonida o'qituvchi qilmasligi kerak bo'lgan top-10 ta xatoni bilib olasiz va bu xatolarni o'zingizdan cheklaysiz;

Shovqinni cheklash metodi


Shovqinni keltirib chiqaradigan tub muammolar, o'quvchilardagi zamonaviy psixologik muammolarni bilib olasiz va o'z yechimingizga ega bo'lasiz;

Shovqinni hosil bo'lismiga olib keladigan o'quvchilardagi tub muammolarni bartaraf etishni o'rganasiz;

"Ijodiy mashq" usuli. Ushbu usul o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, o'ziga xoslik masalaning mohiyatini chuqur anglashuni bajarishga nisbatan yondashish, dalillarni saralash va o'qituvchi tomonidan berilgan topshiriqni ijodiy bajarish jarayonida bilimlarni qo'llash va kengaytirish kabi holatlar bilan tavsiflanadi. Bunda o'qituvchi tomonidan turli vositalar yordamida yangi bilimlarni izlab topish, bilimlarning bir qismini tinglovchilarga, ma'lum qiladi qolganini esa o'quvchilar topshiriqlarni yechish jrayonida savollarga javoblar topish asosida o'zlashtiradi o'zlar bilimlarni mustaqil egallashadi. Uni qo'llashda o'qituvchi va o'quvchi tomonidan quyidagi harakatlar amalga oshiriladi. O'qituvchi o'quvchilarni masalaning mohiyatini o'rganishga jalb etadi; Masalani yechish rejasini aniqlashda mulohaza yuritishga yo'naltiradi; masalan bosqichlarga ajratadi; evristik suhbat ajratadi.

"Imkoniyat" usulida chorak yakunida o'zlashtirishi yuqori bo'lgan o'quvchilarga o'rganilgan mavzular bo'yicha javobi tanlanadigan va javobi yoziladigan testlar tuzib kelish topshiriladi. Bu vazifani a'lo darajada bajargan o'quvchilar yakuniy nazorat ishlarini topshirishdan ozod qilinadi. Test tuzgan o'quvchilarda test yechgan o'quvchiga nisbatan quyidagi ko'nikmalar shakllanadi:

- o'z fikrini yozma tarzda izchil, aniq, tushunarli bayon qila olish;
- mavzudan kelib chiqib savollarga javob berish va o'zi ham savollarni mantiqan to'g'ri qo'ya olish;
- axborotlarni izlab topish, saralash, tanlash va tahlil qila olish;
- bilimini mustaqil ravishda oshirib borish va uni amaliyotda qo'llay olish kabilari.



Yangilik kiritish – bu eng avvalo, tabiiy va sun'iy o'zgarishlar jarayonini boshqarish funkciyasidir. Shuning uchun ta'limdagi innovacion jarayon – bu ta'limdagi o'zgarishlarni boshqarish jarayoni demakdir. Dars jarayonida interfaol usullardan foydalanish o'z mohiyatiga ko'ra sub'ektiv xususiyatiga ega, ya'ni har bir pedagog ta'lim va tarbiya jarayonini o'z imkoniyati, kasbiy mahoratidan kelib chiqqan holda ijodiy tashkil etishi lozim.

Xullas, innovatsion g'oyalari, metod va didaktik o'yinlar kelajagimiz egalari bo'lmish yosh avlodni har tomonlama rivojlantiribgina qolmay, balki zamonaviy jamiyatga muvaffaqiyatli moslashish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni ularda shakllantirishga qaratilgani bilan yanada ahamiyatlidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Adizov B.R. Boshlang'ich ta'limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari. T.2000-yil.
2. Ubayxo'jayeva R. Ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llash // Boshlang'ich ta'lim , 2006, 3-sont.
3. Internet saytlari: -ziyoNet .uz, kitob.uz, multimedya .uz